

KARIES KASALLIGI VA PROFILAKTIKASI

Alfraganus universiteti

Stomatologiya kafedrası assistenti

MEHMONOV OG‘ABEK TANGRIQUL O‘G‘LI

Anotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda keng tarqalgan og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklaridan biri bo‘lgan tish kariyesining kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmi va uni davolashning zamonaviy usullari tahlil qilinadi. Maqolada profilaktik chora-tadbirlar, gigiyena madaniyatini oshirish, shuningdek, yangi texnologiyalar yordamida amalga oshirilayotgan davolash usullari haqida ma‘lumot beriladi. Stomatologiyada lazer terapiyasi, remineralizatsiya, kompozit materiallar bilan plombalash kabi innovatsion yondashuvlarning afzalliklari ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotda kariyesni erta aniqlashning ahamiyatini ta‘kidlab, sog‘lom tish tuzilishini saqlab qolishga yo‘naltirilgan tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar; Stomatologiya, kariyes, zamonaviy davolash, profilaktika, remineralizatsiya, lazer terapiyasi, kompozit plombalar.

Tish kasalliklari orasida uchraydigan eng keng tarqalgan stomatologik muammolardan biri tish kariyesidir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning 60–90 foizida kariyes uchraydi. Bu ko‘rsatkich bolalarning ovqatlanish odatlari, shaxsiy gigiyena madaniyati, shuningdek, tish emalining mustahkamligi bilan bevosita bog‘liq. Tish kariyesi – bu tishning qattiq to‘qimalari yemirilishi bilan kechadigan infeksiyadegenerativ jarayon bo‘lib, u erta davolashni talab qiladi. So‘nggi yillarda stomatologiyada kariyesni davolashda minimal invaziv, ya‘ni tishni maksimal darajada saqlab qolishga qaratilgan usullar keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar –

lazer qurilmalari, yuqori sifatli kompozit plombalar, remineralizatsiya terapiyasi orqali bolalarda tish kariyesini og'riqsiz va samarali davolash imkoniyati yaratilmoqda. Shu sababli stomatologiyada yangi usullarni o'zlashtirish, profilaktik choralarni kuchaytirish hamda aholining gigiyena madaniyatini oshirish bugungi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Kariyes kasalligi – bu tishning qattiq to'qimalarini zararlovchi, infeksiyon-degenerativ jarayon bilan kechadigan, davolanmasa chuqur to'qimalarga o'tib og'ir asoratlarni keltirib chiqaradigan keng tarqalgan stomatologik muammo hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning qariyb 60–90 foizida turli darajadagi kariyes uchraydi. Bu kasallikning paydo bo'lishida ko'plab omillar – noto'g'ri ovqatlanish, og'iz gigiyenasining yetarli emasligi, tish emalining tug'ma zaifligi, flor yetishmovchiligi, shuningdek, irsiy moyillik muhim rol o'ynaydi.

Kariyesning rivojlanish mexanizmi odatda shirin va yopishqoq mahsulotlarni tez-tez iste'mol qilishdan boshlanadi. Og'iz bo'shlig'ida qolgan uglevodlar bakteriyalar ta'sirida parchalanib, kislotalar hosil qiladi. Ushbu kislotalar tish emalining mineral tarkibini yemiradi, natijada dastlab oq dog'lar, keyinchalik esa kichik kavaklar hosil bo'ladi. Vaqtida davolanmasa, bu jarayon dentin va pulpaga o'tib, tishning ichki tuzilmalarini ham zararlaydi. Bolalar tish emalining kattalarnikiga nisbatan yumshoq va minerallarga kamroq to'yingan bo'lishi kariyesning tez rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bolalarda kariyesni erta aniqlash va zamonaviy usullar bilan davolash stomatologlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Zamonaviy stomatologiyada kariyesni davolashda bir nechta yangi yondashuvlar ishlab chiqilgan. Avvalo, minimal invaziv davolash prinsipi qo'llaniladi, ya'ni tishni maksimal darajada saqlab qolish maqsadida faqat zararlangan to'qimalar olib tashlanadi. Bu usul tishning mustahkamligini saqlash, bemor uchun davolash jarayonini og'riqsiz va qulay o'tkazishga yordam beradi. Lazer terapiyasi bugungi

kunda eng samarali usullardan biri sifatida keng joriy qilinmoqda. Lazer yordamida kariyes to'qimasi juda aniq va og'riqsiz olib tashlanadi, bu esa bolalarda davolanishga bo'lgan qo'rquvni kamaytiradi. Lazerning bakteritsid ta'siri tufayli tish kavitasida infeksiya xavfi keskin pasayadi.

Shuningdek, kariyesni davolashda remineralizatsiya terapiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Bu usul tish emalini minerallar bilan to'yintirish orqali kariyesning dastlabki bosqichida emalning tiklanishiga imkon beradi. Kalsiy va fosfarga boy maxsus preparatlar yordamida tish yuzasidagi oq dog'lar yo'qoladi, emal mustahkamlanadi va kariyesning chuqurlashishi oldi olinadi. Bu usul ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda jarrohlik aralashuvini talab qilmasdan, tishning tabiiy tuzilishini saqlashga yordam beradi.

Plombalash texnologiyalarida ham katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Ilgari qo'llanilgan metall yoki amalgam plombalar o'rnini bugungi kunda estetik jihatdan tish rangiga mos kompozit materiallar egallagan. Ular tishga mustahkam birikib, uzoq muddat xizmat qiladi, tashqi ko'rinishda esa tabiiy tishdan farq qilmaydi. Zamonaviy kompozit plombalar tarkibidagi fluorid ionlari tish emalini mustahkamlashga va yangi kariyes o'choqlarining paydo bo'lishini oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga, nano-kompozit materiallar ham tobora keng qo'llanilmoqda, ular yuqori chidamlilikka ega va tish tuzilishiga mukammal moslashadi.

Profilaktika choralari bolalarda kariyesni kamaytirishda eng muhim omil hisoblanadi. Bolalarga tishlarni to'g'ri tozalashni o'rgatish, shakarli mahsulotlarni me'yorida iste'mol qilish, tishlarni fluoridli pastalar bilan muntazam parvarish qilish kariyes rivojlanishining oldini olishda samarali natija beradi. Bolalarni muntazam ravishda stomatolog ko'rigidan o'tkazish, erta bosqichdagi kariyesni aniqlash va davolash imkonini beradi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yiliga kamida ikki marta tish shifokoriga ko'rsatish tavsiya etiladi.

Aholi orasida Tibbiyotning gigiyenik talablar madaniyatini oshirish ham profilaktikaning ajralmas qismidir. Bola tishlari chiqa boshlagan davrdan boshlab ot-onalar ularni maxsus yumshoq cho'tkalar bilan tozalashni boshlashlari kerak. Shirinliklarni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish, gazli ichimliklar, qattiq shakarlamlar, tish emalini yemiruvchi kislotali mahsulotlarni kamaytirish bolani sog'lom tish bilan ta'minlaydi. Homilador ayollar uchun ham sog'lom ovqatlanish, vitamin va minerallarni yetarli miqdorda iste'mol qilish bolaning tish tuzilishining to'g'ri rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy stomatologiyada kariyesni davolashda qo'llanilayotgan yana bir innovatsion usul bu ozon terapiyasi hisoblanadi. Ozonning kuchli antibakterial xususiyati tufayli tish kavitasidagi zararli mikroorganizmlar yo'q qilinadi va davolash jarayoni ancha tezlashadi. Bu usul og'riqsiz, qisqa muddatli bo'lib, bolalarda qo'llash uchun juda qulaydir. Shu bilan birga, ozon terapiyasi davolashdan keyingi asoratlarni xavfini kamaytiradi va tishning tabiiy to'qimasini saqlab qolishga imkon beradi.

Davolash jarayonida shifokorlar har bir bolaga individual yondashish tamoyiliga amal qiladilar. Tishning zararlanish darajasi, bolaning yoshi, umumiy sog'ligi hisobga olinib, eng maqbul usul tanlanadi. Bu esa davolash samaradorligini oshirish bilan birga bolaning ruhiy holatini ham yengillashtiradi. Shuningdek, davolash jarayonida ot-onalar bilan muntazam tushuntirish ishlari olib borish, uy sharoitida gigiyena qoidalariga rioya qilish bo'yicha tavsiyalar berish juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda kariyesni davolash zamonaviy stomatologiya yutuqlari asosida samarali amalga oshirilmoqda. Lazer, ozon terapiyasi, remineralizatsiya, yuqori sifatli kompozit plombalar kabi innovatsion usullar tishlarni og'riqsiz, estetik va uzoq muddatli saqlash imkonini bermoqda. Eng muhimi, kariyesni davolash bilan birga uning oldini olish choralari – muntazam gigiyena, sog'lom ovqatlanish, shifokor ko'rigini o'z vaqtida o'tkazish kabi omillarni kuchaytirish orqali bolalarda sog'lom tishlarni saqlab qolish mumkin. Zamonaviy davolash usullarini

profilaktika tadbirlari bilan uyg'unlashtirish sog'lom avlodni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

Kattalar va bolalarda kariyes kasalligi bugungi kunda eng ko'p uchraydigan stomatologik muammolardan biri bo'lib, u nafaqat tishlarning erta yo'qotilishiga, balki butun organizmning umumiy sog'ligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy stomatologiya yutuqlari – lazer terapiyasi, ozon bilan davolash, remineralizatsiya, yuqori sifatli kompozit plombalar kabi usullar yordamida kasallikni og'riqsiz, estetik va samarali davolash imkoniyati mavjud. Biroq eng muhim omil – profilaktika choralarini kuchaytirishdir. To'g'ri gigiyena, shakarli mahsulotlarni cheklash, fluoridli pastalardan foydalanish, muntazam stomatolog ko'rigidan o'tish, homilador va emizikli ayollarning to'g'ri ovqatlanishi kabi omillar bolalarda kariyesning oldini olishning asosiy sharti hisoblanadi. Zamonaviy davolash usullarini muntazam profilaktika bilan uyg'unlashtirish orqali bolalar tishlarini uzoq muddat sog'lom saqlash, kelajak avlodning umumiy salomatligini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pinkham J.R. Pediatric Dentistry: Infancy through Adolescence.
2. McDonald R.E., Avery D.R. Dentistry for the Child and Adolescent.
3. Koch G., Poulsen S. Pediatric Dentistry: A Clinical Approach.
4. Bolalar stomatologiyasi bo'yicha milliy va xorijiy qo'llanmalar.